



SHOIR NIDOSI "RUHLAR ISYONIDA"

Utemuratova Mohira Qidirniyaz qizi¹, Seremuratova Zayfunu Mambetmurat qizi², Xushanov Alisher Oydin o`g`li³

^{1,2} Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O`zga tilli guruhlarda o`zbek tili ta`lim yo`nalishi 1-bosqich talabasi

³ Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti. O`zga tilli guruhlarda o`zbek tili ta`lim yo`nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7203740>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 15th October 2022

KEY WORDS

E.Vohidov, Ruhlar isyoni, Nazrul Islom, Ibrohim G'ofurov, Shohi Jahon va Avrangzeb, rivoyat, do'stlik

ABSTRACT

Mazkur maqolada taniqli o'zbek shoiri, dramaturgi, adabiyot tarjimoni va davlat arbobi bo'lgan E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonidagi ikki millatning fojeali ahvoli haqida so'z boradi.

Erkin Vohidov nomini ko'p eshitganmiz. Darsliklarda uning asarlar bilan tanishganmiz. Xo'sh savol tug'iladi: Erkin Vohidov kim? Biz bu insonni kim sifatida bilamiz? Avvalo, E.Vohidov haqida gap ketganda hechbir o'zbek millati inkor eta olmaydigan qo'shiqqa aylangan yuzlab lirik she'rlari ijtimoiy hayotga befarq qaray olmagan vatanparvar inson ekanligi isbotlab berilgan. U 1936-yilning 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tavallud topgan. Shoir asarlaridan hayotga, go'zallikka muhabbat, yovuzlikka, tubanlikka nafrat yaqqol sezilib turadi. Uning ilk dostoni "Nido" da insoniyatga og'ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralansa, keyinroq bitilgan "Ruhlar isyoni" dostonida xalqlar, millatlar, dinlar o'rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan. Bu esa shoir ijodida insonparvarlik hamisha bosh mavzu

bo'lib kelganini ko'rsatadi. Vohidov 1960-yil Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. So'ng turli nashriyot va gazeta-jurnallarda ishlagan. "Ruhlar isyoni" dostoni xalqparvar Bengal shoiri Nazrul Islom hayotiga bag'ishlanadi. Nazrul Islom she'riyati yigirmanchi asrning erkparvarlik, insonparvarlik g'oyalari bilan to'liq. U do'stlik va hurriyatni yonib kuylaydi. Doston Nazrul Islomning fojeali qismatini yorqin gavdalandiradi. Ibrohim G'ofurov doston haqida: "Menga u ko'p jihatlardan bugungi o'zbek she'riy tafakkurining-lirik tafakkurining cho'qqisi bo'lib ko'rinadi", -deb yozgan. Adib dostonni 1978-1879-yillarda yozgan. Doston ilk bor "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan. Kitob birincha marta 1980-yil Toshkent shahrida G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan. Nazrul Islom nomi butun Hindistonda isyonkorlik timsoli bo'ldi. Uning iste'dodini



Robindranath Thakur olqishladi, yurtining, zamonining eng olovli shoiri deb atadi. Asar muqaddimasi Nazrul Islomning: “Tug’ilgansan Ozod, mudom ozod bo’lib qol” degan satrlari bilan boshlanadi. Shuningdek, bir qancha rivoyatlar, ya’nikim “Abadiyat” haqida rivoyat keltirilgan. Xususan unda bir kishi ming yil avval qandaydir sehrli chashmadan suv ichgan va mangu yashash unga shu qadar azob berganki, hatto o’zini o’zi qumga ko’rishga ham borganligi bayon qilingan.

“Ruhlar isyoni” dostonida tarixiy shaxslar va ota-o’g’il munosabatlari, Shohi Jahon va Avrangzeb obrazlari orqali tasvirlanadi. Bunda Avrangzeb o’z otasi ya’ni Shohi Jahonga qarshi chiqadi va buni otasiga:

“Haqdan qasos
Ayo Xarram!
Sen ham mendek bo’lgansan
O’z otangga qarshi sen ham
Bir vaqt isyon qilgansan.
Yurishmadi
Lek omading
Kelolmay taxt yoniga,
Qo’llaringni bo’yolmading
Buzrukvoring qoniga” -deya izohlaydi.

Nazrul Islom bir lahza bo’lsada, ozodlik nash’asini surolmadi. Xalq o’z shoirini to so’nggi damgacha e’zozladi. Uning nuroniy, sokin, behush va beruh vujudiga tavof qildi. “Ruhlar isyoni” asari adabiyotimizning ajoyib xazinalaridan biridir. Adib asarda ikki qondosh millatning bir-biriga qarshi dushman qilgan ig’vogarlarini emas o’z shoirini ya’nikim o’z millatining buyuk bir dahosini, porloq yulduzini azob-uqubatlarga giriftor qilganliklarini yozadi.

Biz asardan Nazrul Islom siymosida millatparvar, erkparvar, o’z yurti uchun jonini bergan shaxs timsolida ko’ramiz. Jumladan, dunyoning ko’plab mamlakatlarida millatchilik atalmish illatning mavjud ekanligi, inson hayotiga naqadar katta tahdid solayotgani va albatta, bag’rikeng o’zbeginning har bir millat va elatga nisbatan do’stona kayfiyatidan kelib chiqib, XX asrning insoniyat boshiga juda og’ir kunlarni solgan birinchi va ikkinchi jahon urushlaridagi millatchilik g’oyalarini shuningdek, insonlar o’rtasidagi millatlar va dinlar o’rtasidagi o’zaro nifoq jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko’rsatishini “Ruhlar isyoni” dostonida ta’kidlab o’tadi va bunday holatni keskin qoralaydi. Har bitta inson olohning bergan umrini yashab joiz kelganda bu dunyoni tark etishi kerak, chunki bu hayot qonunidir. Dostondagi Nazrul Islom qizmati, unga daxldor rivoyatlar, shoirning ehtiroslarga to’la o’y-mushohadalari bilan tanishar ekanmiz, asarni yozishdan maqsad faqat Bengal shoiri hayoti, Hindistonda kechgan voqealar, qadim rivoyatlarni hikoya qilishdan iborat emasligini sezib, his etib turamiz. Ayni paytda gap o’z ona yurtimiz, uning istilochilar istibdodi yillaridagi kechkmishi, Qodiriy, Cho’lpon Fitrat kabi millatning asl fidoyi o’g’lonlari, ularning yurt ozodligi, mustaqilligi yo’lidagi kurashlari va bu kurashlar qanchalar qimmatga tushganligi-barchasi birma-bir ko’z oldimizdan o’tadi. Hamda bu dunyo-qaytar dunyo deganlaridek, bir paytlar Shohi Jahon otasiga qarshi isyon qilganligi uchun o’z o’g’li Avrangzebdan ham qaytadi.

References:

1. E.Vohidov “Ruhlar isyoni” dostoni G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019



2. S.Ahmedov,R.Qo'chqorov,"6-sinf adabiyot darsligi" Toshkent "MA'NAVIYAT"-2017